

## BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA ELKTRON DARSЛИKLARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI

Haydarov Ramozon Mamayusupovich

Termiz davlat universiteti "Texnologik ta'lim" kafedrası katta  
o'qituvchisi.p.f.f.d(PhD)

Telefon: +99899-457-41-04

Eliktron pochta manzili: [haydarov\\_ramazon@mail.ru](mailto:haydarov_ramazon@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada elktron darsliklar va ularni bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida qo'llashning ahamiyatini ochib berish borasida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** o'qituvchi, texnologiya, kasbiy kompetentlik, elektron darslik, innovatsiya virtual topshiriqlar, kasbiy kompetentligini rivojlantirish, raqobatbardosh mutaxasis.

## ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ УЧЕБНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ

Хайдаров Рамозон Мамаюсупович

Старший преподаватель п.ф.д (PhD) (доктор философии) кафедры  
«Технологическое образование» Термезского государственного университета.

Телефон: +99899-457-41-04

Электронный адрес: [haydarov\\_ramazon@mail.ru](mailto:haydarov_ramazon@mail.ru)

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение электронных учебников и их использование в процессе подготовки будущих учителей технологии.

**Ключевые слова:** учитель, технология, профессиональная компетентность, электронный учебник, инновация, виртуальные задания, развитие профессиональной компетентности, конкурентоспособный специалист.

## THE SIGNIFICANCE OF USE OF ELECTRONIC TEXTBOOKS IN THE PROCESS OF PREPARING FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGY.

Khaidarov Ramozon Mamayusupovich

Senior lecturer of the Department of "Technological Education" of Termiz State University. Ph.D.

Phone: +99899-457-41-04

Email address: [haydarov\\_ramazon@mail.ru](mailto:haydarov_ramazon@mail.ru)

**Abstract.** This article discusses the importance of electronic textbooks and their use in the process of training future technology teachers.

***Key words.** teacher, technology, professional competence, electronic textbook, innovation, virtual tasks, development of professional competence, competitive specialist.*

**Kirish.** Respublikamizda sifatli ta'lim, fan, texnika va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga qaratilgan taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqish va uni bosqichma-bosqich amalga oshirishga yo'naltirilgan bir qancha davlat dasturlari bajarilmoqda. Hususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 42-maqsadida "2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish<sup>1</sup>" belgilab qo'yilgan.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda maktabgacha, xalq ta'imi va oliy ta'lim muassasalari bir-birlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlashni taqozo etadi. O'zaro hamkorlikda ishlash natijasida yetuk mutaxassislar tayyorlash, ularning jamiyatdagi o'rnini belgilash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, XXI asr boshlariga kelib, axborot jamiyatning shu qadar muhim bo'lagi va tarkibiy qismiga aylandiki, har qanday mamlakatning qanday sur'atlar bilan rivojlanishi bevosita unga bog'liq bo'lib qoldi. Shu sababli har bir davlat bugungi kunda jamiyatni axborotlashtirish masalasiga jiddiy e'tibor bermoqda.

Ta'lim tizimining o'quv amaliyotida qo'llanilayotgan didaktik vositalar orasida zamonaviy elektron vositalarning roli yil sayin ortib bormoqda. Bularga elektron darsliklardan, audio-vizual vositalar, kompyuterlashtirilgan vositalar, mobil vositalar, o'quv platformalari misol bo'la oladi. Bizning fikrimizcha o'qitishda elektron vositalardan foydalanishning faqat axborot tashuvchi texnikasi emas, balki maxsus axborot tashuvchi, animatsiyali, audio-vizualli elektron darsliklar va boshqa axborotlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek o'quv amaliyotida real ishlayotgan stanok, mashina va agregatlarni qo'llash ham yaxshi natija beradi. Ayniqsa umumiy o'rta ta'lim maktablarida amaliy fanlar blokidagi texnologiya fanining ayrim

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 42-maqsadi

mavzularni o'quvchilarga to'laonli yetkazishda yelektron darsliklardan foydalanishning samaradorligi yuqori hisoblanadi.

So'ngi yillarda texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etuvchi va o'tkazuvchi o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ta'lim muassasalarida nazariy va amaliy bilim, ko'nikma hamda malakalarni berishda elektron vositalarni qo'llash muammosiga ko'proq ahamiyat berilmoqda. Elektron vositalarni o'quv amaliyotida qo'llash texnologiya fani o'qituvchilarining mehnatini osonlashtiradi, o'qitish vaqtini qisqartiradi. Texnik vositalarni qo'llashda kitoblardan foydalanish bilan birga elektron qurilmalar, elektron darsliklardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Ushbu vositalarni dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda qo'llash o'qituvchilarga mavzuni tushuntirishda ancha qulayliklar yaratadi va talabalarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga hamda ularning raqobatbardosh mutaxasis bo'lib shakllanishga olib keladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mamlakatimizda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha N.A.Muslimov, L.Bobomurodova, S.S.Igamov, F.S.To'rabekov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosini tashkil etadi, umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini innovatsion yondashuvlar asosida o'qitish bo'yicha M.X.Shomirzayev, B.E.Qodirov, F.X.Mukumova, L.R.Zaripov, M.Ikramova, va R.Paxriddinova, X.A.Umarovlar, kasbiy kompetensiyani takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqot ishlari N.S.Sayidaxmedov, Y.R.Maxmudov, B.I.Muranov, A.R.Xodjaboev, S.X.Abdullaev, F.A.Umarova, kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Hususan, N.A. Muslimov Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish (2004) monografiyasida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanish metodlarini yoritib bergan, B.E.Qodirov "Development of basic Competencies of students in crafts in technology lessons" (2020) maqolasida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda electron ta'limning o'zni va ahamiyatini ochib bergan, To'rabekov F.S. Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida axbopot texnologiyalarini qo'llash metodikasi (2012) nomli dissertasiya

ishida mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida virtual laboratoriyani qo'llashni ochib bergan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda elektron darsliklardan foydalanish muhokama qilinadi. "Texnologiya ta'limi praktikumi" fanidan amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda qo'llaniladigan "Durodgorlik ishlari (Yog'ochga qulda ishlov berish)" elektron darslik asosida ta'lim berishning asosiy maqsadlari keltirilib o'tiladi. Elektron darsliklarni o'quv jarayonida qo'llashning avzalliklari keltirilib o'tiladi.

**Tahlillar va natijalar.** Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ijodiy, texnikaviy tafakkurlarini rivojlantirish yo'llaridan biri texnikaviy konstruksiyalash va modellastirish asosida texnologiya fani darslarini tashkil etishni yo'lga qo'yishdan iboratdir. Texnologiya fanidan nazariy darslarda yoki o'quv ustaxonalaridagi texnikaviy konstruksiyalashni ma'lum darajada malakali konstruktorlar, texnologlar, malakali ishchilar, yig'uvchilar va sozlovchilar faoliyati bilan taqqoslash mumkin. Chunki, ishlab chiqarish sharoitida yangi mashinalarni yaratish singari o'quv ustaxonalarida turli buyumlarni, texnikaviy moddalarni yaratish jarayoni ham quyidagi bosqichlardan tashkil topadi: texnikaviy fikrning tug'ilishi; mo'ljallangan buyumga texnikaviy talablarning qo'yilishi; konstruksiyani eskizlar holatida ishlab chiqarish va uni muhokama qilish; texnologik jarayonning xaritasini ishlab chiqish; zarur materiallar va asboblarni tanlash; o'ylab qo'yilgan buyum detallarini tayyorlash va ularni uzellarga yig'ish; uzellardan buyum tayyorlash, buyumni ishda sinab ko'rish va uni sozlash.

Yuqoridagi talablarni bajarishda elektron darsliklarning hissasi beqiyos hisoblanadi. Chunki, ayrim stanoklarda ish bajarishda stanokda bajarilayotgan maydon haqidagi ta'savvur hosil bo'ladi holos. Ta'lim oluvchiga stanoklarning dvigatelning harakati, uzatmalar qismidagi jarayonlar va hokozolar haqida yaqqol ta'savvur etish uchun elektron darsliklardan foydalanish yaxshi samara beradi. Elektron darsliklarni o'quv jarayonida qo'llashning avzalliklari 1-rasmda keltirilgan.

Virtual stendlar  
yaratish  
imkonini

Nazariy va amaliy  
mashg'ulotlarni birgalikda olib  
borishni ta'minlaydi

Talabalar bilimini  
nazorat qilish  
mexanizmi yaratiladi

### **1-rasm. Elektron darsliklarni o'quv jarayoniga qullash avzalliklari**

Yuqoridagi 1-rasmda ko'rsatilib o'tilganlaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, darslardagi konstruktorlik-texnologik faoliyat produktiv (ijodiy) va reproduktiv (bilish-ijrochilik) faoliyatlarini bir-biriga qo'shish yo'li bilan amalga oshirilishi, ya'ni talabalar texnikaviy model yoki asbobni ishlab chiqishi yoki takomillashtirilishi mumkin ekan. Texnologiya fani darslarini tashkil etishda ko'rgazmali metodlarni qo'llash yuqori samara berishi ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan bo'lib, ayniqsa u ish-harakat faoliyatini virtual tarzda namoyish qilish natijasida bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buni texnologik ta'limining "Texnologiya ta'limi praktikumi (Yog'ochga qulda ishlov berish)" bo'limi uchun tayyorlangan elektron darslik misolida qarab chiqamiz.

Bizning fikrimizcha, texnologiya ta'limida elektron darslik tushunchasi metodologik nuqtai nazardan ancha keng ma'noga ega. Virtual o'quv laboratoriyasidan talabalar nafaqat texnologiya ta'limi amaliyoti jarayonida, balki kurs ishlarini bajarishda va bitiruv malakaviy ishlar loyihalarini amalga oshirishda, o'quv-tadqiqotchilik ishlarida keng foydalanishlari mumkin.

Texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda "Texnologiya ta'limi praktikumi" fanidan amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda qo'llaniladigan "Durodgorlik ishlari (Yog'ochga qulda ishlov berish)" elektron darslik talabalarda

umumkasbiy fanlar bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

“Texnologiya ta'limi praktikumi” fanidan amaliy mashg'ulotlarini “Durodgorlik ishlari (Yog'ochga qulda ishlov berish)” elektron asosida tashkil etish orqali ta'lim mazmuni rivojlanishi bilan bir qatorda o'qitish metodikalari ham takomillashtirilmoqda. Chunki, o'quv jarayonini yoritish, ko'rgazmali tasvirlash va ma'lumot xarakteridagi materiallar bilan boyitish, taqdim etilayotgan axborotning ko'rish qatorini anchagina kengaytirish imkonini beradi.

“Texnologiya ta'limi praktikumi” fanidan amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda qo'llaniladigan “Durodgorlik ishlari (Yog'ochga qulda ishlov berish)” elektron darslikda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi uchun biz tomonimizdan tayyorlandi va amaldagi DTS mazmuniga yo'naltirildi. Ushbu elektron darslikda 24 ta amaliy mashg'uloti berilgan bo'lib, har bir mashg'ulotda dars ishlanmasi, mashg'ulotning nazariy bayoni, virtual topshiriqlar, nazorat savollari, adabiyotlar, izlash tizimi, rasmlar, jadvallar, sxemalar va videolavhalar o'z aksini topgan.

“Texnologiya ta'limi praktikumi” fanidan amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda qo'llaniladigan “Durodgorlik ishlari (Yog'ochga qulda ishlov berish)” elektron darsliklar asosida ta'lim berishning asosiy maqsadlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: talabalar tomonidan texnik bilimlarning egallanishi, o'quv materiallarni o'rganishning turli metod va vositalarini o'zlashtirish, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini shakllantirish; talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, ularning yosh va individual xususiyatlarini, texnik iqtidori asosida turli xil amaliy faoliyat jarayonida rivojlantirish; talabalar faoliyatining turli sohalarida, jumladan yog'ochlarga ishlov berish sohasida uchrashi mumkin bo'lgan amaliy vazifalarni ijodiy hal qilishi uchun sharoit yaratish; talabalarda tabiatga muxabbat, kelgusi kasbiy faoliyati davomida o'z o'rnini topish, o'z mehnati natijalari uchun mas'uliyatni xis qilish, mehnatsevarlik va mehnat madaniyatini tarbiyalashga ko'maklashish sanaladi.

Joylashtirilgan elektron darslikda berilgan material mazmuni kattagina ma'lumotlar bazasidan iborat bo'lib, o'qituvchi undan dars o'tishning turli metodikalarini qurishda foydalana oladi. Bundan tashqari, elektron darslikning

tuzilmaviy tashkil etilishi o'qituvchiga mavjud bo'limlarni o'zining yoritish, ko'rgazmali tasvirlash va ma'lumot xarakteridagi materiallari bilan doimiy to'ldirib borish imkonini beradi Oliy pedagog ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning aksariyat qismi umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya ta'lim o'qituvchilari bo'lishlarini hisobga olgan holda, ushbu elektron darslik mazmuni fan dasturiga moslashtirilgan holda ishlab chiqilgan va fan dasturidagi "Durodgorlik ishlari (Yog'ochga qulda ishlov berish)" bo'limiga doir barcha mavzularni o'z ichiga olgan holda ishlab chiqilgan.

**Xulosa** o'rnida shuni ta'kitlab o'tish joyizki, "Durodgorlik ishlari (Yog'ochga qulda ishlov berish)" bo'limi bo'yicha tayyorlangan elektron darslikda talabalarning boshqa fanlardan olgan bilimlarini o'zida integratsiyalangan bo'lsa bu ma'lumotlardan boshqa o'quv fanlarida ham foydalanish ijobiy samara beradi. Chunki, elektron darslikning muhim jihati durodgorlikda ishlatiladigan moslama va jihozlarning, asboblarning haqidagi umumiy ma'lumotlar bilan birga, mutaxassislar bilishi shart bo'lgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va uzatishga moslashib qolmasdan, balki zarur ma'lumotlar fayllarida saqlanadigan avvalgi mavzudagi ma'lumotlar fayllarida foydalanish yo'li bilan mashg'ulotlarni ko'rgazmalilik va ko'rsatmalilik tamoyillari asosida namoyish qilish mumkinligi hisoblanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora- tadbirlari to'g'risida" 27.07.2017 y., PQ-3151, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-son, 729-modda.

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2019 yil 5 iyuldagi 3-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 5112100-Texnologik ta'lim yo'nalishining Malaka talablari.

2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - T.: Fan, 2004. - 128 b

3. Bobomurodova L.E. Innovatsion ta'lim jarayonida bo'lajak texnologik ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining kasbiy-metodik ijodkorligini takomillashtirish: Dic. p.f.f.d. (PhD) – Samarqand: 2022. – 127 b.

4. Qurbonov B. Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi fanidan mehnat ta'limi yo'nalishi talabalari uchun o'quv-uslubiy majmua Guliston shahri 2011 yil, 125-bet

5. To'rabekov F.S. Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilapini tayyorlash jarayonida axbopot texnologiyalapini qo'llash metodikaci: Ped.fan. nom. diss. – Toshkent, 2011. – 175 b.

6. Shomirzayev M.X, Haydarov R.M.Mukumova F.X.Texnologik ta'lim praktikumi. Darslik // Toshkent.-2022 Lesson Press”

7. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy–pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2019. – 200 b.

8. Qodirov B.E. “Development of basic Competencies of students in crafts in technology lessons” // Yeuropean Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020, Part II ISSN 2056–5852